



TIJORAT BANKLARIDA FINTECH YECHIMLARINI INTEGRATSIYALASH JARAYONI VA ISTIQBOLLARI

Mirziyodov Bobur Nodir o'g'li

Bank va Moliy akademiyasi

Mirziyodov Bobur

Iqtisodiyotni Monetar tartibga solish
fakulteti tinglovchisi

Elektron pochta Bobur8968@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15613628>

Annotatsiya: Mazkur tezis ishida O'zbekiston tijorat banklarida fintech yechimlarini amaliy integratsiyalash jarayonlari o'rganilib, mavjud bank xizmatlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribalari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor mobil ilovalar, onlayn to'lov tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi mijozlarga xizmat ko'rsatish vositalari (chatbotlar), hamda blokcheyn texnologiyasi asosidagi mahsulotlarni joriy etish tajribasiga qaratiladi. Ishda ayrim tijorat banklari (masalan, Ipak Yo'li Bank, Hamkorbank, TBC Bank) tomonidan qo'llanilgan fintech innovatsiyalari misolida ularning samaradorligi, texnik infratuzilmasi, mijozlar ehtiyojini qondirishdagi o'rni va xizmatlar sifati bo'yicha tahlillar olib boriladi.

Kalit so'zlar: Fintech, Raqamli transformatsiya, Moliya texnologiyalari, Sun'iy intellekt (AI), Mobil bank xizmatlari, Open banking, Regtech, Chakana bank xizmatlari.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi moliyaviy sohani tubdan o'zgartirmoqda. Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, ayniqsa fintech yechimlarining joriy etilishi, tijorat banklari uchun nafaqat texnologik innovatsiya, balki strategik omil sifatida qaralmoqda. Fintech — “financial technology” (moliyaviy texnologiyalar) so'zlarining qisqartmasi bo'lib, bu atama moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, tezlashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida yangi texnologik yondashuvlarni anglatadi.

Brett Kingning "Bank 4.0" konsepsiyasi ushbu mavzuning nazariy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, an'anaviy banklar o'z faoliyat modelini qayta ko'rib chiqishi va bank xizmatlarini real ofislar emas, balki mijozlar foydalanayotgan texnologik muhitga (mobil ilovalar, AI, IoT, API va boshqalar) moslashtirishi zarur. “Bank xizmatlari endi joy bilan bog'liq emas, ular vaqt va kontekstga asoslangan bo'lishi kerak.” Nazariy jihatdan, fintech yechimlarining bank tizimiga integratsiyalashuvi quyidagi yondashuvlarga asoslanadi



Innovatsion bank tizimi modeli: An'anaviy bank faoliyatidan farqli o'laroq, fintech banklar faoliyatida avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, blokcheyn va big data asosida qaror qabul qilish mexanizmlari mavjud.

Ochiq bank tizimi (Open Banking): Bu model banklarga API (Application Programming Interface) orqali boshqa xizmat ko'rsatuvchi platformalar bilan integratsiyalash imkonini beradi. Bu esa mijozlarga yanada kengroq xizmatlar spektrini taqdim etadi. Xizmat ko'rsatishda mijoz markaziylik (Customer-centricity): Zamonaviy fintech yondashuvlari mijozlarning xatti-harakatlari, odatlari va ehtiyojlari asosida xizmatlarni moslashtirishga asoslanadi.

Digital Ecosystem nazariyasi: Fintech kompaniyalari va banklar o'rtasida raqamli ekotizim hosil bo'lmoqda. Bu hamkorlik raqobatdan ko'ra ko'proq qo'shma qiymat yaratishga asoslanadi. Bundan tashqari, fintech integratsiyasi Porterning raqobat ustunligi nazariyasi, Texnologik qabul qilish modeli (TAM) va Innovatsiyalarni tarqatish nazariyasi (Everett Rogers) asosida ham tahlil qilinadi. Bu nazariyalar bank mijozlari va moliyaviy tashkilotlarning texnologiyani qanday qabul qilishi, undan foydalanish niyatlari va samaradorlikka ta'sirini izohlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda fintech sohasida o'rta va kichik bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. 2023-yil oxirida dunyo bo'yicha fintech investitsiyalari 2020-yildagi 1,5 milliard dollardan 2023-yilda 3,5 milliard dollarga yetdi. Bu o'sish banklar va fintech kompaniyalari o'rtasida samarali hamkorlikning kengayishi bilan bog'liq. Shuningdek, fintech xizmatlarining 2023-yilda 90%dan ortiq qismini rivojlangan mamlakatlarda, xususan AQSH va Yevropa Ittifoqida qo'llanilmoqda. Ochiq bank tizimi bo'yicha 2022-yilda 100 mamlakatda 2500 dan ortiq fintech platformalari faoliyat yuritdi. Fintech va banklar o'rtasidagi hamkorlik o'sishi bilan birga, 2023-yilda banklar tomonidan ko'rsatilayotgan raqamli xizmatlar soni 60%ga oshdi.

O'zbekistonda fintechning rivojlanishiga oid so'nggi yillarda qator muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Markaziy bank va boshqa moliyaviy muassasalar fintechni tartibga solish, moliyaviy inklyuziyani oshirish va bank xizmatlarini raqamlashtirish borasida faol ishlamoqda. 2023-yilda O'zbekiston banklarining 70%idan ortig'i raqamli banking tizimlarini ishlab chiqdi va ularni ommaviylashtirishni boshladi. Shuningdek, O'zbekiston banklari fintech xizmatlarining integratsiyasini tezlashtirish uchun quyidagi yondashuvlarni qo'llamoqda: Mobil banking tizimlari keng tarqaldi va 2023-yilga kelib, mobil to'lovlar hajmi 40%ga oshdi. Blokcheyn texnologiyasi asosida yangi to'lov tizimlari va xavfsizlik choralari amalga oshirish ishlari davom etmoqda.



Bank nomi	Fintech yechimlari	Asosiy funksiyalari	Natijaviy ta'siri
TBC Bank	Mobil ilova, to'liq raqamli bank xizmatlari	Hisob ochish, kredit olish, pul o'tkazmalari, onlayn to'lovlar	Mijozlarga tez va qulay xizmat, bank filialsiz faoliyat, yosh mijozlar ulushi oshdi
Hamkorbank	Chatbot, mobil banking, to'lov tizimlari	24/7 onlayn mijozlarga xizmat, avtomatlashtirilgan hisob-kitob	Mijozlar murojaatlari soni kamaydi, xizmat ko'rsatish vaqti qisqardi
Ipak Yo'li Bank	Sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar, API integratsiyasi	Kredit reytingi aniqlash, risklarni tahlil qilish, boshqa xizmatlar bilan integratsiya	Kredit portfeli sifatining oshishi, xizmatlar differensiallashtirildi
Kapitalbank	QR to'lovlar, ochiq bank tizimi (Open banking)	Hamkor ilovalar orqali tranzaksiyalar, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash	Hamkorlar orqali mijoz bazasi kengaydi, yangi daromad manbalari paydo bo'ldi

1.1-jadval Tijorat banklarida fintech texnologiyalarining integratsiyasi va mijozlar uchun afzalliklari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кинг, Б. Банк 4.0: Банковское дело везде, но не в банке / Бретт Кинг. — М.: Олимп-Бизнес, 2019. — 384 с
2. Arner, D. W., Barberis, J., Buckley, R. P. The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm // Georgetown Journal of International Law. — 2016. — Vol. 47(4). — P. 1271-1319.
3. Rogers, E. M. Diffusion of Innovations. — 5th ed. — New York: Free Press, 2003. — 512 p.
4. Dahlberg, T., Guo, J., Ondrus, J. A critical review of mobile payment research // Electronic Commerce Research and Applications. — 2015. — Vol. 14, No. 5. — P. 265-284.
5. Мишкин, Ф. Экономика денег, банковского дела и финансовых рынков / Фредерик С. Мишкин. — 10-е изд. — М.: Юрайт, 2015. — 783 с.



6. Марказий банкнинг 2022–2024 йиллар молиявий таҳлил ва рақамли трансформация бўйича ҳисоботлари. — Тошкент: ЎзР Марказий банки нашри, 2024.
7. Рақамли банк хизматлари бўйича: Kapitalbank, TBC Bank, Ипак Йўли банк ва Намкорбанк расмий сайтлари. — 2023–2024 йил. — \[Электрон ресурс] Режим доступа: <https://www.kapitalbank.uz>, <https://www.tbcbank.uz> ва ҳ.к
8. Open Banking Implementation Entity. Open Banking Standards. — London, 2022. — \[Электрон ресурс] Режим доступа: <https://www.openbanking.org.uk>
9. World Bank Group. The Future of Fintech: Opportunities and Challenges for Emerging Markets. — Washington, 2020. — \[Электрон ресурс] Режим доступа: <https://www.worldbank.org>
10. PwC. Global FinTech Report 2022. — London: PwC Publications, 2022. — 36 р. — \[Электрон ресурс] Режим доступа: <https://www.pwc.com>